

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILJI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“TASDIQLANMANGAN”
Oliy va o'rta maxsus ta'lim ishlari bo'yicha
mammammatov

MALAKAVIY AMALIYOT BO'YICHI
HUKURLAR UCHUN ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5112400 – O'zga tili guruhlarida o'zbek tili

Amaliyot davomiyligi – 14-26-fevral 2022 yil
(har kuni)

I. Malakaviy amaliyotning o'tkazilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Malakaviy pedagogik amaliyot o'quv jarayonining bevosita ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tarkibiy qismi bo'lib, barcha talabalar belgilangan tartibda amaliyot topshiriqlarini bajarishlari va hisobotlarni topshirishlari shart.

Malakaviy pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni amalga tatbiq qilishga o'rganish, uni kengaytirish, chuqurlashtirish va mustahkamlash, amaliy ko'nikmalar hosil qilish bilan bir qatorda pedagog kasbining o'ziga xos murakkab qirralari bilan, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi zamonaviy holati, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishishdir.

Amaliyot muddati haftada bir kunga rejalashtirilgan. Talabalarning pedagogik amaliyot davomidagi faoliyati 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarning bajarilish sifati, ilg'or pedagogik va axborot vositalaridan foydalanish darajasi, darsga va darsdan tashqari mashg'ulotlar, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarligi va o'tkazish saviyasi, bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyati, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning yosh va psixologik hususiyatlarini hisobga olib bilishi, jamoa ishlaridagi faolligi, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishi e'tiborga olinadi.

II. Tanishtiruv amaliyotining vazifalari:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha universitetda olgan nazariy bilimni amaliyot bilan mustahkamlash;
- yuqori malakali, ko'p yillik ish tajribasiga ega o'quvchilarning ish tajribalarini o'rganish. O'z mutaxassisligidan dars olib borish malakasini egallash;
- o'quv yurti hayoti, uning o'quv-metodik yo'nalishi, o'quv-tarbiya jarayoni bilan tanishish, o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya ishlari faol qatnashish, mustaqil ish yuritish malakasini hosil qilish;

- o'zbek tili fanidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni o'rganish va tashkil etishda qatnashish;

- o'zlashtirishda o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari individual ishlash usullarini o'rganish. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'rishga hissa qo'shish;

- o'quv yurtida o'z mutaxassislik fani yuzasidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari ustida fikr yuritish mavzu tanlash, material to'plash, ayrim sinov-tajriba ishlarni olib borish, tajribali uslubchi o'quvchilar bilan subbatlar o'tkazish.


Bir kumlik amaliyotning ishchi o'quv dasturi Amaliy filologiya fakulteti Kengashining 2021-yil " _____ " -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:


N.Musulmonova – ToshDO'TAU "Amaliy filologiya" kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

G. Asilova – ToshDO'TAU "Amaliy filologiya" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

ToshDO'TAU Amaliy filologiya fakulteti dekani:
2021-yil " _____ " sentabr


(imzo) S. Muhamedova

Amaliy filologiya kafedrasi mudiri:
2021-yil " _____ " sentabr


(imzo) B. Mengliyeu

IV. Malakaviy amaliyotni tashkil qilish va o'tkazish.

2.1. Amaliyot boshlanishi oldidan fakultet dekani, fakultet amaliyot boshlig'i tomonidan universitet amaliyot rahbari, pedagogika va psixologiya, mutaxassis chiqaruvchi kafedralarning uslubchi o'qituvchilari hamda talabalar ishtirokida konferensiya tashkil qilinib, unda pedagogik amaliyotning maqsadi, o'tkazilish tartibi, amaliyotchi talabalarning vaziflari va bajariladigan ishlar hajmi, hisobot uchun tayyorlanishi lozim bo'lgan hujjatlar va h.k.lar muhokama qilinadi.

2.2. Malakaviy pedagogik amaliyotning birinchi kuni talabalar ta'lim muassasasi rahbariyati, fan o'qituvchilari, guruh rahbarlari, uslubiy birlashma boshlig'i, metodist o'qituvchilar ishtirokida muassasa sharoiti, belgilangan tartib-qoidalari, o'quv xonalari bilan tanishadilar, guruhlarga taqsimlanadilar.

2.3. Pedagogik amaliyotning 5 kuni tanishtiruv amaliyoti deb atalib, unda talabalar ta'lim muassasa jamoasi, ta'limning me'yoriy hujjatlari, ta'lim tarbiyaviy ishlar rejalar, o'quv dasturlari, mutaxassislik fani o'qituvchilari va guruh rahbarining shaxsiy ish rejalari, birlashtirilgan guruh o'quvchilari bilan tanishadilar, fan o'qituvchisi darslarini kuzatib, tahlil qiladilar.

2.4. O'quv bo'limi fakultetni amaliyotga oid zaruriy me'yoriy hujjatlar, talabalar kundaliklari, uslubiy ko'rsatmalar va h.k.lar bilan ta'minlaydi.

2.5. Metodist o'qituvchilar tomonidan sinov darslari jadvali tuziladi, talabalarning haftalik hisobotlarini oladilar, yo'qlama daftarini tuziladi.

2.6. Pedagogik amaliyot davomida amaliyot talabalar amaliyot dasturida ko'zga tutilgan vazifalarni bajaradilar, zarur me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirib boradilar va amaliyot yakunida taqdimot shaklida hisobot beradilar.

V. Malakaviy amaliyot bosqichlari

3.1. Amaliyotga tayyorgarlik ko'rish (amaliyot oldidan): fanni o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya hamda kasbiy fanlar bo'yicha bilimlarni takrorlash, amaliyot dasturi bilan tanishish, mas'ul metodist o'qituvchilardan kerakli maslahatlarni olish, amaliyot oldi konferensiyasiga qatnashish.

3.2. Tanishuv amaliyoti: ta'lim muassasasining joylashishi, tuzilmasi, muhiti, rahbariyati, fan o'qituvchilari va guruh rahbari bilan tanishish. Rahbariyat, birlashtirilgan fan o'qituvchisi va guruh rahbari ish rejasi, fan bo'yicha kalendar reja, konspektlar, guruh jurnallari va boshqa me'yoriy hujjatlar hamda sinf bilan tanishish. Fan o'qituvchilarining darslariga qatnashish.

3.3. Passiv (kuzatish, ish o'rganish) amaliyot: fan o'qituvchisi va boshqa tajribali o'qituvchilar darslariga va darsdan tashqari mashg'ulotlariga qatnashish

– amaliyot davomida sinf rahbarlari ish uslubini o'rganish, o'quv muassasasi tarbiyaviy ish rejasiga mos tadbirlar tashkil etib, o'tkazishga rahbarlik qilish. O'quv yurti miqyosida o'tadigan tadbirlarda faol qatnashish.

– O'zbek tilidan o'quv xonasini jihozlashga, ko'rgazmali qurollar, metodik qo'llanmalar bilan boyitishga yaqindan yordam berish.

III. Malakaviy pedagogik amaliyot mazmuni

1.1. O'quv ishlari: ta'lim muassasida o'quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha me'yoriy (Davlat ta'lim standartlari, fanga tegishli o'quv dasturlari va h.k.) hujjatlar, o'quv-uslubiy ishlar rejasi va bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, fan o'qituvchilarining taqvimiy ish rejalari, dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari rejasi va konspektlari, sinf jurnali, o'quvchilar bilimlari baholash mezonlari hamda ta'lim jarayonining boshqa ishechi hujjatlari bilan tanishish. Birlashtirilgan o'qituvchi va boshqa tajribali o'qituvchilarning darslari va darsdan tashqari o'quv-uslubiy tadbirlarini kuzatish hamda tahlil qilish. Fan o'qituvchisi yordamida o'tiladigan darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Mystaqil ravishda o'qituvchi nazoratida o'tiladigan tajriba darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Baholanadigan (sinov) darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Darsdan tashqari mashg'ulotlar (fakultativ dars, qo'shimcha dars, to'garak va va h.k.) va o'quv-uslubiy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Boshqa amaliyotchi talabalar darslari hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarida ishtirok etish va tahlil qilish.

1.2. Ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar: ta'lim muassasasi va guruh rahbarining ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar rejasi bilan hamda bu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish. Ta'lim muassasasi ma'muriyati va sinf rahbari tomonidan tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda faol ishtirok etish. Ma'naviyat soatlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Sinf rahbarining ish rejasida belgilangan tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish. Guruhning va alohida tanlangan o'quvchining ruhiy holatlarini o'rganish va tahlil qilish, bu bo'yicha pedagogik psixologik ma'lumotlarni jamlab berish, tahlil qilish va tavsifnoma tayyorlash.

1.3. Tashkiliy ishlar: ta'lim muassasasi ma'muriyatining ish rejalari va ish uslublari, ichki tartib-qoidalar, pedagogik kengash va uslubiy birlashmalar ish rejalari bilan tanishish, ularning yig'ilishlarida ishtirok etish.

1.4. Hisobot tayyorlash: amaliyot davomida reja bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, duch kelingan qiyinchilik va muammolar hamda ularni bartaraf etish uchun ko'rilgan choralar, amaliyot jarayoni bo'yicha kundalikda qayd etib borilgan fikr-mulohazalar asosida hisobot tayyorlash. Hisobot himoyasiga tayyorgarlik ko'rish (taqdimot tayyorlash).

hamda tahlil qilish, fan o'qituvchisi yordamida va nazoratida o'tiladigan tajriba darslari va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari hamda tarbiyaviy tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tish. Biriktirilgan guruh va alohida tanlangan o'quvchi ustida pedagogik va psixologik kuzatishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish.

3.4. Faol amaliyot: biriktirilgan fan o'qituvchisi va metodistning nazoratida o'tiladigan dars va darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tish, sinov darslariga va darsdan tashqari mashg'ulot hamda tarbiyaviy tadbirlarga mustaqil tayyorgarlik ko'rish va o'tish, boshqa amaliyotchi talabalar darslariga qatnashish va tahlil qilish, pedagogik va psixologik kuzatishlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, hisobot hujjatlarini tayyorlab borish;

3.5. Amaliyotni yakunlash: malakaviy pedagogik amaliyot hisoboti, hisobotga qo'shib topshiriladigan hujjatlarini tayyorlash, ta'lim muassasasi pedagogik kengashida amaliyot natijalari bo'yicha hisobot berish, ta'lim muassasasida malakaviy amaliyotning yakuniy konferensiyasida qatnashish, hisobotni taqdimot shaklida himoya qilish.

VI. Amaliyotni tashkil etish rejasi

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Mas'ul shaax
1.	Fakultetda talabalar bir kunlik amaliyotiga bag'ishlangan seminar o'tkazish	Amaliyot boshlig'i, dekanat, amaliyot rahbarlari
2.	Guruh talabalari bilan metodistlar suhbatlari. Ta'lim muassasasi bilan talabalarni tanishtirish	Amaliyot rahbarlari
3.	Maktab darsliklari bilan tanishish	O'zbek tili fani o'qituvchilari
4.	Universitet hamda amaliyot olib boriladigan muassasa faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni OAVda yoritib boorish	Amaliyot rahbari
5.	Amaliyot olib borilayotgan ta'lim muassasasida video va audio darslar (rolliklar) tashkil etish	Amaliyot rahbari
6.	O'zbek tili xonasining ijroklanishi bilan tanishish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
7.	O'zbek tili o'qituvchisining ish rejasi bilan tanishib chiqish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
8.	Fan to'garaklari faoliyati bilan tanishish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
9.	Amaliyot olib boriladigan muassasada professor-o'qituvchilarning seminar-treningini tashkil etish	Kafedra mudiri, amaliyot rahbari

10.	Turli fanlardan tajribali o'qituvchilarning darslarini kuzatish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
11.	Biriktirilgan guruh o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlash. Ish reja asosida tarbiyaviy soatlarni kuzatish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
12.	Dars ishlamasi tayyorlash, rasmiylashtirishini kuzatish va o'rganish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
13.	O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etishga qaratilgan davra suhbatlarini tashkil etish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
14.	Sinf jumalalari bilan tanishish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
15.	Ora-onalar yig'ilishlarini tashkil etishga ko'maklashish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
16.	Tadbir va ijodiy kechalar tashkil etish va OAVda yoritish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
17.	Baholar tabelini yuritishni o'rganish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
18.	Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashga o'rganish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
19.	Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan tadbirga tayyorgarlik ko'rish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
20.	Ko'rganmali qurollar tayyorlashni o'rganish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
21.	Dars mashg'ulotini loyihalashtirishni o'rganish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
22.	Darsda AKT dan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
23.	Muassasadagi Yoshlar agentligi faoliyati bilan tanishib boorish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
24.	Ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida insholar tanlovini o'tkazish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
25.	Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
26.	Diktant uz. loyihasi doirasida aktyva o'tkazish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
27.	O'quvchilar uchun universitetda "Ochiq eshiklar kumi"ni tashkil etish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
28.	Bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot yozib topshirish	Amaliyot rahbari

VII. AMALIYOTNI BAHOLASH MEZONLARI:

(Amaliyot uchun 72 soat ajratilgan)

1) "5" baho – «a'lo»

Talaba malakaviy amaliyotga faol ishtirok etgan bo'lsa, amaliyot davomida topshiriqlarni to'liq bajarsa, amaliyot hujjatlarini to'g'ri to'ldirgan bo'lsa;

2) "4" baho – «yaxshi»

Talaba malakaviy amaliyotga yaxshi qatnashsa, amaliyot davomida topshiriqlarni bajarishga harakat qilgan bo'lsa, amaliyot hujjatlarini to'ldirishda ayrim nuqsonlarga yo'l qo'ysa;

3) "3" baho – «qoniqarli»

Talaba malakaviy amaliyotga qoniqarli qatnashsa, amaliyot davomida topshiriqlarni chala bajargan bo'lsa, amaliyot hujjatlarini to'ldirishda ayrim nuqsonlarga yo'l qo'ysa;

4) "2" baho – «qoniqarsiz»

Malakaviy amaliyotga ko'p qatnashmagan yoki mutlaqo qatnashmagan talaba baholanmaydi.

Bir kunlik pedagogik amaliyot jarayonida talaba tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar ro'yxati:

1. Talaba haqidagi ma'lumotnoma
2. DTS (O'zbek tili fani)
3. Amaliyot dasturi
4. Dars tahlili dasturi
6. 2020-2021-o'quv yili uchun taqvim-mavzu reja (biriktirilgan 1ta sinfniki)
7. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga oid hujjatlar (sinf rahbari hujjatlaridan namunalar, maktabda tashkil etilgan to'garaklar haqida ma'lumot)
8. Hisobot (amaliyot yakunida reja muvofiq tayyorlanadi).

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012.
3. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.

4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma). – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 168.

5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 352-b.

6. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. – Тошкент: Т.Н.Кори Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ, 2015. – 160 б.

7. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 464 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Кунун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт параккиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Куч адолатла, 2016 йил 8 декабрь, № 47.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида" ги ПФ-4797 сонли Фармони, 2016 йил 13 май.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. – Xalq so'zi, 2017-yil, 21-aprel.
6. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil.
7. Ziyodova T. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. – T.: Xalq merosi, 2002.
8. Tolipov O' va b. O'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – T., 2004.
9. Suyunov H. Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash. – T., 2004.

10. Yo'ldoshev I., Mirzarahimova M. Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar. –T., 2006.
11. Hasanova B. Pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). –T., 2005.
12. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. –T.: Muharrir, 2011.
13. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. –T.: Tamaddun, 2010.
14. Ahmatov T., va b. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish (metodik qo'llanma). Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
15. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. –T.: Tafakkur, 2012.
16. R.Niyozmetova, T.Yusupova., G.Eshchanova. Pedagogik amaliyot (O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan malakaviy pedagogik amaliyot uchun mo'ljallangan metodik qo'llanma). –T., 2016.
17. Qodirov V.A. Mumtoz adabiyot o'qitish muammolari va yechimlar. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyounet.uz
3. www.edu.uz